

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

RETROSPECTIVE METHOD IN STUDYING CRIME IN OLMAS UMARBEOV'S STORY "SUMMER RAIN"

Bozorova Nasiba

Tashkent State Law University,
Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature,
Candidate of Philological Sciences

Abstract. In the plot of a detective work, retrospection - remembering a previous event - is important. Based on this method, the causes of the crime and its hidden motives, the mysterious actions of the characters are revealed, and the detective content is expressed more deeply, a lot of information and factual data about the crime are provided. This article analyzes how the retrospection method is used to solve the crime in the story "Summer Rain" by Olmas Umarbekov. The importance of teaching this detective story to law students is also discussed.

Keywords: retrospection, detective work, literary text, artistic device, plot, motive for the crime, factual information, the story "Summer Rain".

O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI

Bozorova Nasiba

Toshkent davlat yuridik universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti shu'bası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,
E-mail: bozorova-76@mail.ru
<http://www.orcid.org/0000-0001-9605-0384>

Annotatsiya. Detektiv asar syujetida retrospeksiya – avval bo'lib o'tgan voqeani eslash muhim ahamiyatga ega. Bu usul asosida jinoyat sabablari va uning yashirin motivlari, qahramonlarning sirli harakatlari yoritiladi hamda detektiv mazmun yanada chuqur ifodalanadi, jinoyatga doir ko'plab axborot, faktik ma'lumotlar beriladi. Mazkur maqolada O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasida jinoyatni ochishda retrospeksiya usulidan qanday foydalanilgani tahlil etilgan. Shuningdek, yurist-talabalarga ushbu detektiv qissani o'qitishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: retrospeksiya, detektiv asar, badiiy matn, badiiy priyom, syujet, jinoyat sababi, faktik ma'lumotlar, "Yoz yomg'iri" qissasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N28>

Kirish. Detektiv asarlar syujetining qiziqarli bo'lishi, o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qila olishining bir necha badiiy priyomlari bor. Shunday usullardan biri retrospeksiya usulidir. Retrospeksiya (lot. retrospectio – orqaga nazar tashlash) – asarda voqealar rivojini to'xtatib, o'tmishda sodir bo'lgan hodisalarga qaytish orqali syujetni ochib berish, badiiy matnda o'quvchini oldingi mazmun va faktik ma'lumotlar bilan bog'lash usuli. U o'quvchining matn haqidagi tasavvurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, o'tmishga doir havolalarni o'z ichiga

olishi bilan qahramonlar hayotidagi bugungi muammolarni osonroq tushunishga yordam beradi [1].

Retrospeksiya badiiy asardagi voqealarni izohlash, tushuntirishda muhim omil sanaladi. Uning vositasida uzundan-uzoq voqealar bayoni bir lahzalik xotira sifatida qisqagina ikki-uch jumlada ifodalanadi. Qisqa, biroq mazmunni ochib beruvchi eslamalar asar kompozitsiyasi, voqealar bayoniga singib ketgani bois ularni hikoya ichidagi kichik hikoya ekanligi u qadar bilinmaydi.

Material va metodlar. Retrospeksiya ayniqsa detektiv asarlarda alohida o‘rin tutadi. Bu xususda O.Lapina [1], I.Guseynova [2], L.Kryukova [3] kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tishgan. Mutaxassislar detektiv asarlarda o‘tmishga qaytib ish ko‘rish ustuvorligini ta’kidlab, zamonaviy adabiyotda hatto retro detektiv asarlar ommalashayotganini qayd etishmoqda. Retro detektiv hikoyalar uchun o‘tmishdagi haqiqiy tarixiy voqealar, qahramonlar va jinoyatlar obyekt sifatida olinadi. Biroq retro komponent badiiy adabiyotga xos badiiy to‘qima asosida haqiqiy tarixiy va madaniy kontekstdan uzoqlashtiriladi. Retroga ishonch bag‘ishlash uchun muallif ensiklopedik va mifologik qarashlarga murojaat qiladi, shu bilan o‘tmish va bugun, tarixiy haqiqat va badiiy adabiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi [2]. Ta’kidlash lozimki, retro detektiv asar muallifi qat’iy ilmiy-tarixiy aniqlikni da’vo qilmasdan, o‘quvchiga o‘tmish bilan tanishuv imkonini beradi, o‘z qarashi asosida tarixiy haqiqatni mushohada qilish, anglashga yordam beradi.

Ko‘rinib turibdiki, retro – oldinga qaytish, avval bo‘lib o‘tgan voqeani ortda turib eslash detektiv asarlarning muhim xususiyati. Bu usul asosida jinoyat sabablari va uning yashirin motivlari, qahramonlarning sirli harakatlari yoritiladi hamda detektiv mazmun yanada chuqur ifodalanadi. Fikrimizni o‘zbek adabiyotida birinchi detektiv asar deya e’tirof etilgan O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasi misolida ko‘rib o‘tamiz.

Tadqiqot natijalari. “Yoz yomg‘iri” qissasi yurisprudensiya yo‘nalishida tahsil oladigan talabalar uchun boy o‘quv material bera oladi. Qissa janr talablari, badiiy ijod qonuniyatlari nuqtayi nazaridan yuqori baholanmasligi mumkindir, biroq yuridik masalalarni o‘rganish, tahlil qilish jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarni o‘qitish orqali huquqshunos-talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, jinoyat-surishtiruv harakatlari olib borish, dalillarni to‘plash va tasniflashni o‘rganish, protsessual harakatlarni olib borish va uni rasmiylashtirish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, izchil, ravon ifodalashga erishish mumkin. Ayniqsa asarda jinoyat ishiga aloqador retrospektiv ma’lumotlarni tizimli o‘rganish jinoiy odil sudlov yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy ko‘nikmalar shakllanishiga yordam berishi shubhasiz.

Asar “Bu kun... 197... -yilning 22-avgusti, tramvay haydovchi qiz Munira Shayxuddinova xotirasidan umr bo‘yi o‘chmaydi” [4.3], degan jumlar bilan boshlanadi. Yozuvchi boshlanmadanoq o‘quvchi diqqatini asar voqeligiga qaratib, uni mavhum va qandaydir kutilmagan holat mavjudligiga ishonitiradi. Bu sirlik na‘matak butalari orasida yotgan yosh bir juvonning jasadini ko‘rish orqali ochiladi. Biror marta o‘lim holati, ayniqsa, shafqatsiz ravishda o‘ldirilgan shaxsning jasadini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan kishi qanday holatga tushadi? O‘quvchi ham jasadni ko‘rgan Munira holatini, uning qo‘rquv, tahlika va sarosima iskanjasida qolib temiryo‘lchi amakining ko‘rsatmasi bilan idoraga – tez yordamga qo‘ngiroq qilish uchun shpallar ustidan yugurib ketganini aniq tasavvur qiladi.

O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasida o'tmishga murojaat, oldin sodir etilgan, bo'lib o'tgan voqea, hodisa, axborotlarni eslash, ularni hozirgi zamon kontekstida tahlil qilish uslubi ustuvor. Muallif asarda retrospeksiyaning mahorat bilan qo'llagani bois jinoyat ishini ochish jarayonida o'quvchi qahramonlar hayoti, dunyoqarashi, psixolog'iyasini bilan to'la tanishib boraveradi. Eslash, xotirlash fonida adib qotillik qurboni bo'lgan Munisxon Saidovning hayoti, xarakterini ochib beradi. Bunda uning eri Rahim Saidov bilan munosabatlari va qotillik sodir bo'lishiga yaqin kunlar tasviri berilib, keyingi voqealarda aniqlangan jinoyat ishi yuzasidan olib borilgan surishtiruv-tergov harakatlari tasvirlanadi. Asar retrospektiv usulni qo'llash shartiga binoan kulminatsiyadan boshlanadi. Surishtiruv jarayonida yuzaga keladigan muammolar yechimi ham orqaga qaytish – retrospeksiya usulida hal etiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Asarda jinoyatni ochish jarayonida kapitan Sobir Aliyev tomonidan eslangan, oldin sodir etilgan quyidagi jinoyatlar ortga qaytish fonida bayon etilgan:

1. ***Kasalxona orqasidagi noqonuniy gazlama ishlab chiqarilayotgan sexning aniqlanishi.*** Har qanday jinoyat ishini ochish ma'lum muddat talab qiladi. Vaqt tushunchasi jinoyat ishini ochishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda jinoyat ishini ochishda vaqt tushunchasi asosan jinoyat sodir etilgani yoki unga tayyorgarlik haqidagi ma'lumot (ariza, xabar) kelib tushgandan keyin prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sudyaning harakatlanish muddatini bildirishi ta'kidlangan. Jinoyat ishini ochishda vaqt tezkorlik va qonuniy tartibga rioya qilishni anglatar ekan, "Yoz yomg'iri" da ham kapitan Sobir Aliyev na'matak butalari ostidan topilgan jasad – yosh bir juvonning o'ldirilishi bilan bog'liq jinoyat ishi qancha vaqtgacha cho'zilishini o'ylaydi. U ishdan mehnat ta'tiliga chiqib, xotini Sanobar bilan Truskovetskka dam olishga ketmoqchi bo'lib turganda yangi ishning unga topshirilishi sayohatni bekor qiladi. Yangi ish qanchon yakuniga yetadi, bu noma'lum. Tergov-surishtiruv ishida hech bir jinoyat qonuniy asoslar bilan xulosalanmaguncha ish tugatilmaydi. Surishtirishning o'z qonun-qoidasi, vaqtga amal qilish tartibi, muddatlari borki, bu haqida asarda retrospeksiya usulida ma'lumot beriladi. Yangi ish haqidagi topshiriqni olgan Sobir Aliyev shunday xotirlaydi: Oldingi gal ham Yaltani aylanib kelmoqchi bo'lib "Endi jo'naymiz, deb turishganda jinnixonadagi ish ochilib qoldi. Juda g'alati, bosh og'ritadigan ish edi. Uch oy – yozning deyarli hammasi shu ishni tekshirishga ketdi. Yalta olis yulduzdek olisda miltillab qolaverdi. O'shanda bir tasodif sabab bo'ldi-yu, kasalxonaning bosh hamshirasi so'roq paytida ikkita ro'molcha ishlatdi. Bittasi juda g'alati, kapitan izlab yurgan to'r ro'molcha edi. Keyinchalik shu ro'molcha kasalxona territoriyasidagi yashirin sexga, undan esa respublikaning turli rayonlariga jo'natilgan million-million metr kashtalarga olib bordi. Lekin shungacha ozmuncha ter to'kildimi?" [4.13]. Bu eslatma bizga sodir etilgan har qanday jinoyat turidan qat'i nazar – qonuniy talab asosida ochilishi shartligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ishni ochishda har bir narsa ahamiyatli, hatto kichik detal ham muhim o'rin tutishini anglatadi. Uchinchidan, yangi ish qaysidir jihati bilan oldin sodir etilgan ishlarga qiyoslanib, ma'lum yondashuv, xulosalar qilishga yordam beradi.

2. ***Rashk tufayli xotinini o'ldirgan kishi voqeasi.***

E'tibor qilsak, qissada retrospeksiya priyomi jinoyatni fosh qilish vazifasini bajaruvchi huquq-tartibot organi xodimlari faoliyatining real harakatlari asosi sifatida berilgan. Negaki, yakuniga yetgan har qanday jinoyatning zamon nuqtayi nazaridan boshlanishi bo'ladi. Oxirgi nuqtada turgan odam haqiqatni bilish uchun tabiiy ravishda boshlang'ich nuqtani ham ko'rmog'i lozim. Shu ma'noda, asarda qotillik jinoyati oqibati ma'lum, biroq ro'y berish sabablari aniq emas. Qissasini o'rganish jarayonida talabalar oqibatdan sababni izlashga tushadilar. Qotillik sodir etilar ekan, albatta, uning obyekti ham bo'ladi. Obyekt bilan birga uning bu ishga qo'l urishiga sabab bo'lgan omillar ham mavjud. Na'matak butalari orasidan topilgan taxminan 28 yoshlardagi juvonning jasadida ko'kargan joylar, qon va pichoq izlarining mavjudligi jinoyat alomatlarini tasdiqlaydi. Bu holni ko'rgan kishida tabiiy ravishda "Bu ishni kim qildi va nega?" degan savol tug'iladi. Qotillik alomatini ko'rgan militsiya katta kapitani S.Aliyevda ham bu ish kim tomonidan va nima sababdan amalga oshirilgani xususida bir qancha taxminlar paydo bo'ladi. Savol ortidan esa gumon va taxminlar tug'iladi. Kapitanda dastlab, "Bu o'g'rilik va talonchilik natijasi," – degan fikrga keladi. Munisxonning fe'lini, uning tillaga o'chligini yaxshi bilgan kitobxon yurist-talabalar ham bu fikrga qo'shiladi. Ammo tekshiruv jarayonlarida aniqlik kiritilishicha, Munis Saidovanning hech qanday buyumlari yo'qolmagan. Mas'ul xodimlar tomonidan barcha buyumlar tekshirilib, ish hujjatlariga kiritilgach, buyumlar protsessual tartibda xaltachalarga solinib, muhrlanib, olib qo'yiladi. Demak, mazkur jinoyat buyumlar olib ketilmaganiga ko'ra o'g'rilik va talonchilik oqibati emas. Birinchi taxmin asoslar bilan rad etiladi.

Keyingi gumon Munis Saidovanning turmush o'rtog'i Rahim Saidovga qaratiladi. U xotinini rashk tufayli o'ldirgan bo'lishi mumkin. Bunday jinoyat hayotda ko'p uchraydi. R.Saidov xotini Munisxonni juda ham sevardi. Munisxon esa oxirgi vaqtlarda o'zgarib qolgan edi. Turli qimmatbaho sovg'a-salomlarga o'chlik uni tobora o'z domiga tortib bormoqda edi. Rahim Saidov kuz kunlarining birida ishdan erta qaytdi. Munisxon esa uyda yo'q edi. Qorong'u tusha boshlasa ham Munisxondan darak bo'lmaydi. Bir vaqt Rahim Saidov derazaning bir tabaqasini ochib, daraxtdan bir-ikkita barg tushishini kuzatib turganda uy oldiga "Pobeda" kelib to'xtaydi. Undan Munisxon qo'lida paket bilan tushadi. So'ng kulib haydovchi bilan xayrlashib, uyga kiradi. Lekin Rahim Saidov haydovchining yuzini ko'rmaydi. Uyga kirgach Munisxonning o'zi haydovchi magazinchi Anatoliy Nazarovich ekanligini aytib beradi. Balki Rahim Saidov Munisxonni undan rashk qilib o'ldirib qo'ygan bo'lishi mumkin. Bu taxmin Kapitan Aliyevning ham xayolidan o'tadi va u o'sha ishni xotirlash orqali yangi gumonni quvvatlantiradi: "Bundan roppa-rosa olti yil avval Sobir Aliyev rayon militsiya bo'limida ishlab yurganida ToshMIning orqasidagi madaniyat va istirohat bog'iga tutashib ketgan "Shanxay" deb nom olgan pastak, omonat uylar orasidagi jinko'chalarning birida yosh bir ayolning o'ligi topiladi. O'shanda ham qotil uning hech narsasiga – na taqinchoqlariga, na sumkasidagi talay pulga (ayol oziq-ovqat magazinida sotuvchi bo'lib ishlardi) tekkan, lekin ashaddiy dushman sifatida butun yerini qoldirmagan, urgan, bo'g'gan, oxiri boshiga tosh bilan urib o'ldirgan. Bir oy deganda u topildi. Xuddi shu yerda, fojia sodir bo'lgan joyda qo'lga tushdi. Sababi – rashk. Ayol u bilan bir yilcha yurgan, hatto yashagan, keyin boshqa odam bilan turmush qurgan. Yigirma yilga kesilib ketdi" [4.17].

Mazkur jinoyat ishini eslash orqali muallif surishtiruv-tergov organi xodimining mantiqiy mulohaza yurita olishi kuchli bo'lishi, har bir ishni oldin ko'rilgan ishlar bilan taqqoslab, to'g'ri xulosaga kelishi lozimligini ta'kidlagan.

3. Yangi yil kechasida xotinini zaharlab o'ldirgan shifokor voqeasi.

Tergov xodimida bilim, malaka va ko'nikma bilan birga tajriba asosida shakllangan ichki intuitsiya, insonlar psixologiyasini bilishi, so'roq qilinayotgan shaxsning yuz ifodasi, ko'z qarashi, so'zlashi va o'zini tutishidan u haqida ma'lum xulosaga kelishi, odamga tashqi qiyofaga qarab baho bera olishi lozim. Kapitan Sobir Aliyev ham Rahim Saidovni ko'rmay turib, undan shubhalangan edi. U dastlab yosh juvonning jasadini ko'rib, ish faoliyatida aynan shu kabi sodir etilgan jinoyat ishini eslab, eri rashk tufayli o'ldirgan bo'lishi mumkin, degan taxminga keladi. Lekin Munisxonning turmush o'rtog'i Rahim Saidovni ko'rgandan so'ng bu fikridan qaytadi. Uning olim, ziyoli inson ekani, odam o'ldirishdek jirkanch ishga qo'l urmasligiga ichki sezim bilan ishonadi. Biroq kapitan Aliyev o'z ichki ovozigacha qarshi argument keltiradi. Bu argument ham retrospeksiya asosida ifodalanadi: "Tuppa-tuzuk odamlar o'z xotinlarini juda puxta o'ylab o'ldirganlariga misollar yo'q emas. Obro'li bir vrach shunday qilgan. Bunga ancha bo'ldi. Kapitan ko'rgan emas, delosini o'qigan. Yangi yil kechasi ichib o'tirib, zahar bergan. Qizig'i shundaki, ertasiga o'zi militsiyaga aytib bergan" [4.36]. Oldin sodir etilgan bu jinoyatni eslash orqali kapitan Aliyev ichki intuitsiyasiga ishonib, chiqargan xulosasini rad etadi. Bu orqali muallif tergovchi ichki ovozdan ko'ra aniq faktlarga tayanib ish yuritishi lozimligini uqtiradi. Umuman olganda, detektiv asarlarda ko'p qo'llanuvchi retrospeksiya usuli tergov-surishtiruv amaliyotining asosiy elementi hisoblanadi. Tergov harakatlari mazmuni doim real holat, vaziyat, so'nggi nuqtadan boshlang'ich nuqta tomon harakatlanadi va retro – o'tgan voqealarni eslash, o'rganish asosida ochiladi. Bu o'ziga xos murakkab jarayonda so'nggi holat, voqelikka doir ko'plab axborot, faktik ma'lumotlar olinadi, saralanadi, tahlil qilinadi, qiyoslanadi, baholanadi va shu asosda xulosalanadi. Shuningdek, detektiv asar o'quvchida taxmin qilish, izlanish istagini uyg'otadi va asardagi izquvar-tergovchi bilan yonma-yon harakat qilishga undaydi.

Xulosalar. Xullas, "Yoz yomg'iri" qissasida kapitan Sobir Aliyevning retro-xotiralari asosida jinoyatning yuzaga kelish sabablari tahlil etilgan. Bu axborotlar yurist-talabalarni faol fikrlashga undaydi. Ularning har qanday jinoyat ishini oldin sodir etilgan o'xshash ishlar bilan qiyoslash va shundan kelib chiqib xulosa chiqarish, tergov harakatini yo'naltirish kabi muhim jihatlarni bilishiga yordam beradi. Asardagi jinoyat protsessiga aloqador retro eslatmalar yurist-talabalarining surishtiruv-tergov organi xodimlari qanday kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi, ishni olib borish tartibi va usullari haqidagi bilimlarini boyitadi. Shuningdek, talabalarining muammoni izlash, uni belgilariga qarab topish, to'g'ri qaror qabul qilish, jinoyat olami argolari va uning o'ziga xos belgilari, mazmunini bilish; jinoyatlarni tasniflash ularga huquqiy baho berish; qahramonlar nutqi, voqealar bayoni orqali davr huquq tizimi haqida xulosa qilish; asardagi ijtimoiy-huquqiy voqelikni bugungi kun bilan qiyoslash va xulosalashlariga imkon beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Лапина О. Ретроспекция в художественном тексте // Молодой учёный. 2024, № 31(530). –С. 128-134. <https://moluch.ru/archive/530/116933>
2. Гусейнова И.А. (2016). Разворот к архаике, или к вопросу о месте и роли ретрособытия в литературном дискурсе. Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки, (7 (746)), 50-56.
3. Крюкова Л. Сюжетная перспектива в рассказах детективного жанра <https://www.dissercat.com/content/syuzhetnaya-perspektiva-v-rasskazakh-detektivnogo-zhanra>

4. Umarbekov O'. Yoz yomg'iri. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).